



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**No1**  
MAXSUS SON



## BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 204 sahifa.  
2026-yil yanvar*

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor

**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)

**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.

**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari

**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi

**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.

**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT .....	10
Urinboev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI .....	15
Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA'SIRI .....	21
Xoliqulova Ra'no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich	
КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА .....	25
Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович, Саттарова Зухра Илхомовна	
DAVLATNING YASHIL INVESTITSİYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI.....	31
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI O'SISHIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING STRATEGIK O'RNI: PREZIDENT MUHOJAJATNOMASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL .....	35
Ma'rupov Zahiriddin Feruzovich, Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI BIZNES-SUBYEKTLARINI BAHOLASH: ESG MEZONLARI ASOSIDA BARQARORLIK INDEKSINI ISHLAB CHIQISH VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI .....	39
Po'latov Orzubek Fazliddin o'g'li, Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА .....	43
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
AKSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020–2024-YILLAR BO'YICHA IQTISODIY TAHLILI .....	49
Karimov Diyorbek, Abdurashidov Abdusamad	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING SOLIQ TUSHUMLARI VA FUQAROLARNING SOLIQ INTIZOMIGA TA'SIRI .....	55
Maxkamova Dildora Shavkat qizi, Ergashev Shavkat Maxkamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В МАРКЕТИНГОВЫЕ КОММУНИКАЦИИ КОМПАНИЙ .....	59
Рахимжонов Аброр Марифжанович, Кахрамонов Хуршид Шухратович	
BOZOR IQTISODIYOTIDA UMUMIY TALAB VA UMUMIY TAKLIF .....	66
O'ktamova Shaxruza Abror qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOYIY TARMOQLAR ORQALI MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH USULLARI (O'ZBEKISTONDAGI YIRIK BRENDLAR MISOLIDA).....	70
Axmedova Robiya Rustamovna, Kadirova Sharafat Amonovna	
MINTAQANING INNOVATSION IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYASI .....	76
Rushana Taxirova, F.U.Umarov	
SAMARQAND VILOYATI UCHUN TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH .....	83
Alimardonova D.T., Tursunova G.R.	



BUXORO VILOYATINING MADANIY VA TARIXIY MEROSI ASOSIDA KREATIV TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH IMKONIYATLARI.....	91
<b>Davronova G.O., Tursunova G.R.</b>	
MAIN DIRECTIONS OF ECONOMIC AND SOCIAL EFFICIENCY IN SERVICE ENTERPRISES .....	96
<b>Ilamonov Mehroj Akbar o'g'li, Xayitov Jamshid Xolvoyevich</b>	
KREDIT MEXANIZMINING ELEMENTLARI O'RTASIDAGI ALOQADORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	102
<b>Alimov Umid Xamid o'g'li, Umarov F. U.</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINING AHAMIYATI.....	109
<b>Mamanazarov Javohir Kamolovich, Xurramov Ramazon Allayor o'g'li</b>	
XALQARO BANKLAR TOMONIDAN INVESTITSION LOYIHALARNI KREDITLASH MEXANIZMI VA UNING IQTISODIY TA'SIRI .....	115
<b>Boltayeva O'g'iloy, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li</b>	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI VA UNING USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	119
<b>Sharipova Mohinur, Uralova Sevara, Zaripova Sayohat Zafarovna</b>	
DIRECTIONS FOR IMPROVING PUBLIC WELFARE AND REDUCING POVERTY.....	127
<b>Jumanazarov Ro'zmurod, Rabbimov Elbek Abdulloevich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li</b>	
THE EVOLUTION OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN: TRENDS, DRIVERS, AND FUTURE PROSPECTS.....	132
<b>Madina Abdujabborova, Nozima Zufarova</b>	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA JARAYONINI BOSH DAN KECHIRAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA BOZORLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	136
<b>Hayot Abduqodirov, G'olib Baxriddinov, Karjavova Xurshida Abdumalikovna</b>	
WAYS TO ENSURE THE FINANCIAL STABILITY OF ENTERPRISES THROUGH THE USE OF MONETARY AND CREDIT INSTRUMENTS IN BANKS .....	141
<b>Mustafaeva Khurliman Azat kizi, Baymuratova Zina Aqilbekovna</b>	
KICHIK BIZNES SUBEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH YO'LLARI.....	147
<b>Xakimova Go'zal Akbar qizi, Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich</b>	
TAX SYSTEM FOR SMALL BUSINESSES .....	152
<b>A. Juzbaev, Davletyarova Guldana</b>	
WAYS TO DEVELOP THE PRACTICE OF USING INNOVATION IN BANKS.....	156
<b>Umedov Abdullo, Khodjimamedov Akmal Ashurovich</b>	
IMPROVING THE ACCOUNTING OF INCOME FROM CORE ACTIVITIES IN SAM GLASS LLC.....	161
<b>Usmanov Shakhzod Shokhrukhovich, Musaeva Shoira Azimovna</b>	
JAMIYATDA YOSHLAR ISHSIZLIGI VA UNING IQTISODIY OQIBATI.....	167
<b>Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U. Umarov</b>	
EKOLOGIYA TRANSFORMATSIYA VA IQTISODIY O'SISH: YASHIL IQTISODIYOT MODEL I.....	174
<b>Abduraxmonov Valijon G'ofurovich, Yusupova Dilnigor A'zamjon qizi</b>	
ZAMONAVIY TURIZM: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	178
<b>Abrorova Bahriniso Asqar qizi, Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich</b>	
МОДЕЛИ СОЦИАЛЬНЫХ ИННОВАЦИИ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	182
<b>Алеуатдинова Шахноза, Нургалиева Нейла, Таджиева Мадина, Исраилова Феруза Назриллаевна</b>	
IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI.....	187
<b>Sobirov Iskandar Tohir o'g'li, Kenjayev M.G'.</b>	



EKOLOGIYANING INSON HAYOTIDAGI O'RNI VA ZAMONAVIY JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI.....	192
Jo'rayeva ferangiz Jamshid qizi, Karimova Sadoqat Amrillojevna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI DINAMIK TAHLIL VA 2028-YILGACHA PROGNOZ .....	196
Salayeva Umida Kudrat qizi, Chinorova Shahodat Mansur qizi, Abdumutalipov Jamshidbek Nodir o'g'li	



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI DINAMIK TAHLIL VA 2028-YILGACHA PROGNOZ

## Salayeva Umida Kudrat qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
Iqtisodiyot fakulteti  
Mintaqaviy iqtisodiyot  
3-kurs RU-23 guruhi talabasi  
ORCID: 0009-0008-2977-0195  
E-mail: [salayevaumida105@gmail.com](mailto:salayevaumida105@gmail.com)

## Chinorova Shahodat Mansur qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
Iqtisodiyot fakulteti  
Mintaqaviy iqtisodiyot  
3-kurs RU-23 guruhi talabasi  
ORCID: 0009-0000-9817-492x  
E-mail: [shchinorova@gmail.com](mailto:shchinorova@gmail.com)

Ilmiy rahbar:

## Abdumutalipov Jamshidbek Nodir o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti  
Sun'iy intellekt yo'nalishi  
1-kurs magistratura talabasi  
ORCID: 0009-0000-8815-3500  
Email: [abdumutalipovjamshidb3k@gmail.com](mailto:abdumutalipovjamshidb3k@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy-tahliliy maqolada O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining daromad va xarajat ko'rsatkichlari rasmiy statistik ma'lumotlar asosida kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida 2015-2023-yillar mobaynida davlat budjetiga tushgan mablag'lar dinamik tahlil usullari yordamida hisoblab chiqildi hamda mavjud tendensiyalar asosida 2028-yilgacha bo'lgan davr uchun 5 yillik prognoz ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, budjet daromadlarining o'sish sur'atlari va umumiy rivojlanish yo'nalishlari baholandi hamda moliyaviy barqarorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** umumiy tendensiya, o'rtacha yillik o'sish sur'ati, budjet daromadi, budjet xarajatlari, 5 yillik prognoz.

**Abstract:** This scientific and analytical article provides a comprehensive analysis of the revenue and expenditure indicators of the State Budget of the Republic of Uzbekistan based on official statistical data. Within the framework of the study, dynamic indicators of state budget revenues for the period of 2015-2023 were calculated, and based on identified trends, a five-year forecast up to 2028 was developed. The results of the study assess the growth rates and overall development trends of budget revenues and present recommendations aimed at strengthening financial stability.

**Key words:** general trend, average annual growth rate, budget revenue, budget expenditure, five-year forecast.

**Аннотация:** В данной научно-аналитической статье проведён комплексный анализ показателей доходов и расходов Государственного бюджета Республики Узбекистан на основе официальных статистических данных. В рамках исследования были рассчитаны динамические показатели поступлений в государственный бюджет за 2015-2023 годы, а также на основе выявленных тенденций разработан пятилетний прогноз до 2028 года. По результатам исследования дана оценка темпов роста бюджетных доходов и направлений их развития, а также сформулированы предложения и рекомендации, направленные на укрепление финансовой устойчивости.

**Ключевые слова:** общая тенденция, среднегодовой темп роста, доходы бюджета, расходы бюджета, пятилетний прогноз.



## KIRISH

Davlat budjeti har bir davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni belgilovchi asosiy moliyaviy-huquqiy hujjat hisoblanadi. Unda hukumatning muayyan moliyaviy yil uchun rejalashtirilgan daromadlari va xarajatlari aks ettiriladi. Davlat budjeti mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlari, ijtimoiy dasturlar samaradorligi hamda makroiqtisodiy barqarorlik darajasini baholashda muhim mezon sifatida xizmat qiladi. Budget daromadlari bevosita va bilvosita soliqlar, resurs va mulk soliqlari hamda boshqa tushumlar hisobidan shakllanib, mamlakat iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [1].

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil davlat budjeti daromadlari 274,3 trillion so'mni tashkil etib, bu YalMning 18,9 %iga teng bo'ldi hamda o'tgan yilga nisbatan 18,3 % o'sish qayd etildi. Daromadlar tarkibida bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, resurs va mulk soliqlari hamda boshqa tushumlar asosiy ulushni egalladi.

So'nggi o'n yillikda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va bozor mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada yalpi ichki mahsulot (YalM) o'sish sur'ati barqaror ijobiy tendensiyani namoyon etib, 2023-yilda qariyb 7,5 %ga yetdi. Mazkur o'sish davlat budjetiga tushumlar hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, 2023-yil yakunida budget daromadlari 231,7 trillion so'mni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 14,8 %ga oshdi. Iqtisodiy faollikning kengayishi bilan bir qatorda budget xarajatlari hajmi ham ortdi. Infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, ijtimoiy himoya tizimini kengaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga ajratilayotgan mablag'larning ko'paytirilishi natijasida 2023-yilda budget kamomadi YalMning 5,5 %i darajasida shakllandi [8]. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy rivojlanish sharoitida faol fiskal siyosat olib borilayotganini anglatadi.

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti sharoitida davlat budjeti daromadlari va xarajatlari dinamikasini chuqur tahlil qilish, o'rtacha yillik o'sish sur'atlarini aniqlash hamda kelgusi besh yil uchun asoslangan prognozlar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda 2015-2023-yillar oralig'ida budget daromadlarining asosiy manbalari — bevosita va bilvosita soliqlar, resurs va mulk soliqlari hamda boshqa tushumlar bo'yicha dinamik tahlil amalga oshirildi. Daromadlarning yillik o'zgarish tendensiyalari statistik usullar yordamida aniqlandi, o'rtacha yillik o'sish sur'ati hisoblab chiqildi hamda 2015-2023-yillar davomida daromadlar o'sishining umumiy yo'nalishi baholandi [2].

Tadqiqotning keyingi bosqichida analitik tekislash usuli — to'g'ri chizikli regressiya modeli qo'llanildi. Mazkur model orqali daromadlar dinamikasi matematik ifodaga keltirildi. Model parametrlarini aniqlashda kichik kvadratlar usulidan foydalanildi va natijada daromadlar vaqt funksiyasi sifatida ifodalandi. Ushbu yondashuv kelgusidagi tendensiyalarni statistik jihatdan asoslangan holda prognoz qilish imkonini beradi.

Maqolaning yakuniy qismida 2024-2028-yillar uchun 5 yillik prognoz natijalari taqdim etildi. Prognoz qiymatlari to'g'ri chizikli regressiya tenglamasi asosida hisoblab chiqildi. Olingan natijalar davlat budjetining istiqboldagi moliyaviy barqarorligini baholash, resurslarni samarali rejalashtirish hamda iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda muhim analitik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari mamlakat iqtisodiy rivojlanishining izchilligini ta'minlash, budget siyosatini optimallashtirish va moliyaviy boshqaruv jarayonlarini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat budjeti daromadlari va ularning o'zgarish dinamikasini tahlil qilish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda davlat budjeti daromadlarining shakllanish manbalari, ularning makroiqtisodiy omillar bilan o'zaro bog'liqligi hamda uzoq muddatli prognozlarni ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Klassik iqtisodiy nazariyada davlat budjeti fiskal siyosatning asosiy instrumenti sifatida talqin etilib, uning daromad qismi iqtisodiy o'sish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil ekani ta'kidlanadi. Keyns yondashuvida budget daromadlari va xarajatlari iqtisodiy sikllarni tartibga solish vositasi sifatida baholanadi. Monetar yondashuvda esa davlat budjeti muvozanati va defitsit darajasi mamlakat iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda (OECD, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi hisobotlarida) davlat budjeti daromadlarining dinamik tahlili ko'pincha vaqt qatorlari asosida amalga oshirilib, regressiya, trend tahlili hamda ekonometrik modellar orqali prognozlash usullari keng qo'llaniladi [5]. Ushbu ishlarda soliq tushumlarining iqtisodiy faollik darajasi, YalM o'sishi hamda institutsional islohotlar bilan o'zaro bog'liqligi ilmiy asosda yoritilgan.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida O'zbekiston Respublikasida budget daromadlarining shakllanishi, soliq siyosatini takomillashtirish va fiskal barqarorlikni ta'minlash masalalari ustuvor ilmiy yo'nalish sifatida



o'rganilgan. Xususan, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliq bazasini kengaytirish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish budjet daromadlarini oshirishning muhim omillari sifatida e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda O'zbekiston davlat budjeti daromadlarining uzoq muddatli dinamikasi hamda aniq matematik modellar asosida 5 yillik prognozlash masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab etadi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu yo'nalishni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, 2015-2023-yillardagi budjet daromadlari dinamikasini kompleks tahlil qilish hamda 2028-yilgacha prognozlash orqali ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishni maqsad qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy-tahliliy tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining dinamikasini tahlil qilish hamda kelgusi yillarga prognozlash jarayonida umumilmiy va maxsus iqtisodiy-statistik usullardan foydalanildi. Tadqiqotning axborot manbalarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi hamda rasmiy statistik ma'lumotlar tashkil etdi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida dinamik qatorlar tahlili usuli qo'llanilib, 2015-2023-yillar oralig'ida davlat budjetiga tushgan daromadlarning yillik o'zgarish ko'rsatkichlari, umumiy tendensiyasi hamda o'rtacha yillik darajasi aniqlandi. Dinamik qatorning o'rtacha darajasi arifmetik o'rtacha formulasi asosida hisoblab chiqildi, bu esa ko'rsatkichlarning umumiy rivojlanish yo'nalishini baholash imkonini berdi.

Keyingi bosqichda budjet daromadlarining o'sish sur'atlarini aniqlash maqsadida o'rtacha yillik o'sish sur'ati mutlaq darajalar asosida hisoblandi. Mazkur ko'rsatkich daromadlarning uzoq muddatli barqaror o'sish tendensiyasini statistik jihatdan baholash imkonini berdi [6].

Daromadlar dinamikasining asosiy yo'nalishini aniqlash uchun analitik tekislash usuli qo'llanildi. Ushbu yondashuv doirasida vaqt mustaqil o'zgaruvchi omil sifatida, davlat budjeti daromadlari esa bog'liq o'zgaruvchi sifatida qabul qilindi. Natijada daromadlar dinamikasi to'g'ri chiziqli regressiya modeli asosida ifodalandi, bu esa kelgusidagi o'zgarishlarni ilmiy asosda prognozlash imkonini yaratdi:

$$y_t = a_0 + a_1 t$$

Model ko'rinishida tuzildi va uning parametrlarini aniqlashda kichik kvadratlar usulidan foydalanildi [3]. Mazkur usul regressiya tenglamasi parametrlarini eng kichik xatolik mezonini asosida baholash imkonini beradi.

Ushbu model asosida tekislangan darajalar hisoblab chiqildi hamda haqiqiy va nazariy qiymatlar o'rtasidagi tafovut minimal darajada ekani aniqlandi. Bu holat tanlangan modelning statistik jihatdan ishonchlilikini va amaliy qo'llash uchun maqbulligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida aniqlangan tendensiya kelgusida ham saqlanib qoladi degan ilmiy faraz asosida 2024-2028-yillar uchun 5 yillik prognoz ishlab chiqildi. Prognoz natijalari davlat budjeti daromadlarining istiqboldagi o'sish yo'nalishlarini baholash, resurslarni samarali rejalashtirish hamda fiskal siyosatni takomillashtirish jarayonida muhim analitik asos bo'lib xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat budjeti hukumatning ma'lum bir moliyaviy yil uchun rejalashtirgan daromadlari va xarajatlarini aks ettiruvchi asosiy moliyaviy hujjat bo'lib, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi [4]. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida budjet daromadlari va xarajatlari hajmi sezilarli darajada oshdi. Mazkur jarayon iqtisodiy faollikning kengayishi va fiskal siyosatning faollashuvi bilan izohlanadi. Quyida 2023-2024-yillar holati, budjet daromadlari manbalari, xarajat yo'nalishlari hamda moliyalashtirish mexanizmlari tahlil qilinadi.

2023-yilda O'zbekistonning konsolidatsiyalangan budjet daromadlari 153,8 trillion so'mni tashkil etdi. Daromadlarning asosiy qismi Soliqlar qo'mitasi tomonidan yig'ilgan tushumlar hissasiga to'g'ri kelib, jami daromadlarning 74,6 %ini (76,3 trillion so'm) tashkil etdi. Bojxona qo'mitasi tushumlari 23,8 % (24,3 trillion so'm) ulush bilan budjet daromadlariga sezilarli hissa qo'shdi, qolgan 1,7 % esa boshqa daromadlar va notijorat tushumlardan shakllandi. Daromadlar tarkibida bevosita soliqlar (foyda solig'i va jismoniy shaxslar daromad solig'i) barqaror manba sifatida muhim o'rin egallaydi. Bilvosita soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona to'lovlari) ichki va tashqi savdo faoliyati orqali shakllanadi. Mulk va resurs soliqlari yer, mol-mulk hamda yer qa'ridan foydalanish to'lovlari o'z ichiga oladi. Shuningdek, dividendlar, jarimalar va litsenziya to'lovlari kabi boshqa tushumlar budjet daromadlarini diversifikatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

2024-yil uchun tasdiqlangan davlat budjeti xarajatlari 312 921 mlrd so'm miqdorida belgilangan bo'lib, uning 48,4 %i ijtimoiy xarajatlarga yo'naltiriladi. Ijtimoiy xarajatlarga ta'lim, sog'liqni saqlash, pensiya va ijtimoiy yordam dasturlari kiradi. Shu bilan birga, infratuzilma, energetika, transport va qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan investitsion loyihalarga ham salmoqli mablag' ajratilmoqda. 2023-yil birinchi yarim yilligida budjet xarajatlari 180,8 trillion so'mni tashkil etdi va bu daromadlardan yuqori bo'lishi natijasida 26,9



trillion so'm yoki YalMning 5,7 %i miqdorida kamomad yuzaga keldi. Kamomadning shakllanishiga energetika sohasidagi qo'shimcha xarajatlar, jumladan, sovuq qish mavsumida ichki talabni ta'minlash maqsadida 2,6 mlrd kub metr tabiiy gaz import qilingani ham ta'sir ko'rsatdi [9]. Bu holat iqtisodiy barqarorlikni saqlash va aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tezkor fiskal choralar natijasi sifatida baholanadi.

2023-yil yakunida davlat budjeti kamomadi 59 trillion so'mni yoki YalMning 5,5 %ini tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich ichki va tashqi qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi. 2023-yil oxirida davlat qarzi YalMga nisbatan 37,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yakuniga qadar ushbu ko'rsatkichning 40 % atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda [9]. Moliyalashtirish manbalari ichki bozorda davlat qimmatli qog'ozlari emissiyasi va bank kreditlari, xalqaro moliyaviy institutlarning imtiyozli kreditlari (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki) hamda xalqaro kapital bozorlarida eurobond emissiyalarini o'z ichiga oladi.

2024-yil birinchi yarim yilligida budjet daromadlari 121,0 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,3 %ga oshdi [9]. Bu soliq ma'muriyatchiligi samaradorligining ortishi va iqtisodiy faollikning kengayishi bilan izohlanadi. Xarajatlar hajmi ham ijtimoiy va investitsion dasturlarni izchil moliyalashtirish natijasida o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Davriy dinamik qatorlarning o'rtacha darajasi oddiy arifmetik o'rtacha formulasi asosida aniqlanadi. Dinamik qator o'rtachasini hisoblash uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$\bar{Y} = \frac{y_1 + y_2 + y_3 + y_n}{N} = \frac{\sum y}{N}$$

Mazkur formula orqali ko'rsatkichlarning ma'lum davr oralig'idagi o'rtacha darajasi aniqlanadi va umumiy rivojlanish tendensiyasini baholash imkonini beradi [10]. Dinamik qator o'rtachasini hisoblashda tegishli statistik ma'lumotlardan foydalaniladi (1-jadval).

1-jadval. 2015-2023-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasi davlat budjetiga tushgan daromadlar hajmi (mlrd so'mda)<sup>1</sup>

Yillar	Daromadlar (mlrd so'm)
2015	31 405,1
2016	39 641,5
2017	49 681,0
2018	79 099,0
2019	112 165,4
2020	132 938,0
2021	164 799,4
2022	202 000,0
2023	231 721,3
Jami	1 043 450,7

Ushbu jadvalda formula asosida  $\bar{Y}$  ning qiymatini hisoblasak, barcha y lar yig'indisini ularning soniga bo'lamiz:

$$\bar{Y} = \frac{1043450,7}{9} = 115\,939 \text{ mlrd so'm.}$$

Demak, 2015-2023-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasi davlat budjetiga o'rtacha har yili 115 939 mlrd so'm miqdorida daromad kelib tushgan. Mazkur ko'rsatkich tahlil qilinayotgan davr mobaynida budjet tushumlarining umumiy hajmini yillar kesimida baholash imkonini beradi.

O'rtacha yillik o'sish sur'atini mutlaq darajalar asosida ham hisoblash mumkin. Bunda daromadlar dinamikasining davriy o'zgarishi inobatga olinadi va maxsus statistik formuladan foydalaniladi. Ushbu yondashuv budjet daromadlarining o'sish intensivligini aniqlash hamda ularning uzoq muddatli rivojlanish tendensiyasini ilmiy asosda baholash imkonini beradi:

$$\bar{R} = \sqrt[n]{\frac{Y_n}{Y_0}}$$

$$\bar{R} = \sqrt[n]{\frac{Y_n}{Y_0}} = \sqrt[15]{\frac{31405,1}{231721,3}} = 0.801 \text{ yoki } 80,1\%$$

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



Shunday qilib, davlat budjetiga tushumlarning 2015-2023-yillar davomida o'rtacha yillik o'sish sur'ati 80,1 %ni tashkil etgani aniqlandi. Mazkur ko'rsatkich tahlil qilinayotgan davr mobaynida budjet daromadlarining yuqori sur'atlarda o'sib borganini va fiskal siyosat samaradorligining ortganini ko'rsatadi.

Dinamik qatorlar o'zgarish tendensiyasini aniqlash maqsadida analitik tekislash usuli qo'llaniladi hamda mos matematik tenglama tanlanadi. Dinamik qatorlarning umumiy rivojlanish yo'nalishini aniqlashda analitik tekislash usuli boshqa usullarga nisbatan aniqroq natija berishi bilan ajralib turadi. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, qator darajalarining vaqt bo'yicha o'zgarish xususiyatiga mos matematik funktsiya tanlanadi va haqiqiy darajalar vaqt funktsiyasi:

$$y_t = f(t)$$

ko'rinishida ifodalanadi. Mazkur vazifa ma'lum darajada murakkab bo'lib, qator darajalarining umumiy yo'nalishiga qarab turli matematik funktsiyalar qo'llaniladi [7].

Agar dinamik qatorlarda o'zgarishlar bir tekis yoki arifmetik progressiya ko'rinishida, ya'ni mutlaq qo'shimcha o'sish miqdori barqaror bo'lsa, unda tendensiyani ifodalash uchun to'g'ri chiziqli regressiya tenglamasidan foydalaniladi. Mazkur tenglama dinamik jarayonning asosiy yo'nalishini aniqlash hamda prognoz hisob-kitoblarini amalga oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

$$y_t = a_0 + a_1 \cdot t$$

Bu yerda:

- $y_t$  - tekislangan qator darajasi;
- $a_0, a_1$  - parametrlar (kichik kvadratlar usulida aniqlanadi);
- $t$  - davrlar soni.

Tenglamadagi  $a_0$  va  $a_1$  parametrlarini quyidagi formulalar yordamida aniqlashimiz mumkin:

$$a_0 = \frac{\sum y \cdot \sum t^2 - \sum ty \cdot \sum t}{n \cdot \sum t^2 - (\sum t)^2}$$

$$a_1 = \frac{n \cdot \sum ty - \sum y \cdot \sum t}{n \cdot \sum t^2 - (\sum t)^2}$$

To'g'ri chiziqli regressiya tenglamasini tuzishda 2015-2023-yillar bo'yicha quyidagi hisoblash ko'rsatkichlaridan foydalaniladi (2-jadval).

2-jadval. To'g'ri chiziqli tenglama parametrlarini aniqlash uchun hisoblash ma'lumotlari<sup>2</sup>

Yillar	Daromadlar (mlrd so'm) (y)	t	t <sup>2</sup>	t·y
2015	31 405,1	-4	16	-125 620,4
2016	39 641,5	-3	9	-118 924,5
2017	49 681,0	-2	4	-99 362,0
2018	79 099,0	-1	1	-79 099,0
2019	112 165,4	0	0	0,0
2020	132 938,0	1	1	132 938,0
2021	164 799,4	2	4	329 598,8
2022	202 000,0	3	9	606 000,0
2023	231 721,3	4	16	926 885,2
Jami	1 043 450,7	0	60	1 572 416,1

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, to'g'ri chiziqli tenglama parametrlarini aniqlab olamiz:

$$a_0 = \frac{\sum y \cdot \sum t^2 - \sum ty \cdot \sum t}{n \cdot \sum t^2 - (\sum t)^2} = \frac{1\,043\,450,7 \cdot 60 - 1\,572\,416,1 \cdot 0}{9 \cdot 60 - 0^2} = 115\,938,97$$

$$a_1 = \frac{n \cdot \sum ty - \sum y \cdot \sum t}{n \cdot \sum t^2 - (\sum t)^2} = \frac{9 \cdot 1\,572\,416,1 - 1\,043\,450,7 \cdot 0}{9 \cdot 60 - 0^2} = 24\,274,62$$

2 Muallif tomonidan yaratilgan.



Demak, bizning to'g'ri chiziqli tenglamamiz  $y_t = 115938,97 + 24274,62 \cdot t$  hisoblanadi.

Tekislangan dinamik qatorlar

Dinamik qatorning tekislangan (nazariy) qatorlarini aniqlashda to'g'ri chiziqli tenglamamiz  $y_t = 115938,97 + 24274,62 \cdot t$  yordamidan foydalanib quyidagi jadvalni shakllantirib olamiz (3-jadval)

3-jadval. Balans daromadlari miqdorining umumiy tendensiyasi<sup>3</sup>

Yillar	Balans tushumlari (mlrd so'm)	Analistik tekislangan dinamik miqdorlar (mlrd so'm)
2015	31 405,10	18 840,49
2016	39 641,50	43 115,11
2017	49 681,00	67 389,73
2018	79 099,00	91 664,35
2019	112 165,40	115 938,97
2020	132 938,00	140 213,59
2021	164 799,40	164 488,21
2022	202 000,00	188 762,83
2023	231 721,30	213 037,45
Jami	1 043 450,70	1 043 450,70

Jadval natijalariga ko'ra, analitik tekislash asosida hisoblangan nazariy (tekislangan) ko'rsatkichlar umumiy yig'indi bo'yicha haqiqiy darajalar bilan tenglashgan. Bu regressiya modelining matematik jihatdan to'g'ri tuzilganini hamda kichik kvadratlar usuli talablariga muvofiqligini ko'rsatadi.


Tekislangan qiymatlar dinamik qatorning umumiy o'sish tendensiyasini aks ettiradi va qisqa muddatli tebranishlarning ta'sirini kamaytirgan holda asosiy rivojlanish yo'nalishini aniqlash imkonini beradi.

Matematik modelimiz haqiqatga yaqinligini tekshirish uchun haqiqiy darajalar va modelimizdan olingan darajalar minimal darajada tafovutda yoki 0 ga teng bo'lishi lozim:

$$\sum y = \sum \bar{y}_t$$

$$1\ 043\ 450,70 = 1\ 043\ 450,70$$

Grafikda 2015-2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining izchil va barqaror o'sish tendensiyasi kuzatiladi. 2015-yilda daromadlar 31 405,1 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 231 721,3 mlrd so'mga yetgan. Bu davr mobaynida budjet tushumlari qariyb 7 baravar oshgan bo'lib, fiskal siyosat samaradorligining ortgani va iqtisodiy faollik kengayganini ko'rsatadi (1-grafik).



1 -grafik. Balans tushumlari miqdorining umumiy tendensiyasi.

Aniqlangan tendensiya kelajakda ham saqlanib qoladi, deya faraz qilib aholi jamg'armalarining keyingi 5 yildagi qiymatini hisoblash

3 Muallif tomonidan yaratilgan.




Aniqlangan tendensiya kelajakda ham saqlanib qoladi deya faraz qilib, tovarlar qiymati keyingi 5 yildagi qiymatini hisoblashda, to'g'ri chiziqli tenglamamiz  $y_t = 115938,97 + 24274,62 \cdot t$  yordamidan foydalanib, quyidagi jadvalni shakllantirib olamiz (4-jadval).

4-jadval. Analitik tekislash natijasida prognoz miqdorlar<sup>4</sup>

Yillar	Balans tushumlari (mlrd so'm)	t	Analitik tekislangan dinamik miqdorlar (mlrd so'm)
2015	31 405,10	-4	18 840,49
2016	39 641,50	-3	43 115,11
2017	49 681,00	-2	67 389,73
2018	79 099,00	-1	91 664,35
2019	112 165,40	0	115 938,97
2020	132 938,00	1	140 213,59
2021	164 799,40	2	164 488,21
2022	202 000,00	3	188 762,83
2023	231 721,30	4	213 037,45
2024 (prognoz)	—	5	237 312,07
2025 (prognoz)	—	6	261 586,69
2026 (prognoz)	—	7	285 861,31
2027 (prognoz)	—	8	310 135,93
2028 (prognoz)	—	9	334 410,55

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2015-2023-yillarda davlat budjeti daromadlari barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Analitik tekislash natijalari daromadlar dinamikasining izchil yuqorilab borayotganini ko'rsatadi. Haqiqiy va nazariy (tekislangan) qiymatlar o'rtasidagi tafovutlar minimal darajada bo'lib, bu regressiya modelining statistik jihatdan mos va ishonchli ekanini tasdiqlaydi.

Prognoz natijalariga ko'ra, agar aniqlangan tendensiya saqlanib qolsa, 2028-yilga kelib davlat budjeti daromadlari 334 410,55 mlrd so'mga yetishi kutilmoqda. Bu esa o'rta muddatli istiqbolda fiskal salohiyatning yanada kengayishini anglatadi (2-grafik).



2-grafik. Balans tushumlarining 2028-yilgacha bo'lgan prognozi

Grafik 2015-2028-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining barqaror va izchil o'sish tendensiyasini aks ettiradi. Haqiqiy ko'rsatkichlar 2015-2023-yillarda sezilarli sur'atlarda oshib borgan bo'lsa, regressiya asosida tuzilgan trend chizig'i ushbu o'sishning tizimli xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Prognoz qiymatlariga ko'ra, agar mavjud tendensiya saqlanib qolsa, 2028-yilga kelib budjet daromadlari 330-335 ming mlrd so'm atrofida shakllanishi kutilmoqda. Grafikdagi nuqtalarning trend chizig'iga yaqin joylashuvi tanlangan to'g'ri chiziqli modelning statistik jihatdan mos va ishonchli ekanini tasdiqlaydi hamda o'rta muddatli istiqbolda fiskal salohiyatning kengayish ehtimoli yuqori ekanini ko'rsatadi.

4 Maullif tomonidan yaratilgan.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ilmiy-tahliliy tadqiqot O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining 2015-2023-yillardagi dinamikasini tahlil qilish hamda 2024-2028-yillar uchun besh yillik prognoz ishlab chiqishga bag'ishlandi. Tahlil natijalariga ko'ra, 2015-2023-yillar davomida budjet daromadlarining umumiy hajmi 1 043 450,7 mlrd so'mni tashkil etib, o'rtacha yillik tushum 115 939 mlrd so'mga teng bo'ldi. Mutlaq darajalar asosida hisoblangan o'rtacha yillik o'sish sur'ati 80,1 %ni tashkil etdi, bu esa budjet tushumlarining izchil va yuqori sur'atlarda o'sib borganini ko'rsatadi. Daromadlar tarkibida asosiy ulush bevosita soliqlarga to'g'ri kelib, 2023-yilda jami tushumlarning 74,6 %ini tashkil etdi, bilvosita soliqlar esa 23,8 % ulush bilan muhim fiskal manba sifatida namoyon bo'ldi. 2023-yil yakunida budjet kamomadi YalMning 5,5 %iga teng bo'ldi, bu esa faol investitsion va ijtimoiy yo'naltirilgan fiskal siyosat natijasi sifatida baholanadi.

Analitik tekislash asosida tuzilgan to'g'ri chiziqli regressiya modeli:

$$yt = 115938,97 + 24274,62t$$

ko'rinishida aniqlanib, tekislangan qiymatlarning haqiqiy ko'rsatkichlarga yuqori darajada mosligi tasdiqlandi. Model asosida 2028-yil uchun budjet daromadlari 334 410,55 mlrd so'm miqdorida prognoz qilindi, bu kelgusi besh yillikda fiskal salohiyatning kengayish tendensiyasi saqlanishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish, moliyalashtirish instrumentlarini kengaytirish va raqamli integratsiyani rivojlantirish orqali budjet siyosati samaradorligini yanada mustahkamlash zarurligini asoslab beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Chesbrough, G. Ochiq innovatsiyalar. Foydali texnologiyalarni yaratish. - M.: Pokolenie, 2007. - 336 bet.
2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W. W. Norton & Company.
3. Elkom. Elektron tijoratning umumiy masalalari [Elektron manba]. - URL: <http://elcomrevue.ru/tsifrovaya-ekonomika>.
4. Laudon, K. C., & Laudon, J. P. (2020). Management Information Systems: Managing the Digital Firm. 16th ed. Pearson.
5. OECD. (2019). Measuring the Digital Transformation: A Roadmap for the Future. Paris: OECD Publishing.
6. Романов, А. А. (2021). Цифровая экономика: теория, практика и управление. - Москва: Юрайт.
7. Qabulov, B. (2022). Raqamli iqtisodiyot va innovatsion boshqaruv. - Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
8. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal. Davlat budjeti daromadlari [Elektron manba]. - URL: <https://gov.uz/en/imv/sections/davlat-budjeti-daromadlari>.
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi [Elektron manba]. - URL: <https://www.imv.uz>.
10. Babanazarova, S. A., Xudayberdiyev, U., Xoliqulov, A. N. (2022). Statistika. Darslik. - Samarqand: "Fan bulog'i", 138-bet.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

### 1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>